

TOHIR MALIKNING “ALVIDO... BOLALIK” QISSASIDA O‘SMIRLAR TAQDIRINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Narziqulova Baxtigul Xolbo‘ta qizi

Xushbaqova Xushnoza O‘tkir qizi

Toshkent gumanitar fanlar universiteti talabalari

Ilmiy rahbar: M.O Fayzullayeva

Toshkent gumanitar fanlar universiteti

“Pedagogika va tillar” kafedrası ona tili

va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Tohir Malikning “Alvido... bolalik” qissasi asosida o‘smirlarning jinoyat yo‘liga kirishiga olib keluvchi omillar – ijtimoiy loqaydlik, oilaviy befarqlik va noto‘g‘ri tarbiya masalalari yoritilgan. Asar tahlili orqali o‘smirlik davrining nozik jihatlari, bolalik va orzular, yetuklik sari bo‘lgan harakatlar, shuningdek, do‘stlik va hayot sinovlarining ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘smir, jinoyat, oila, tarbiya, ijtimoiy muhit, loqaydlik, bolalik.

Kirish. Zamonaviy adabiyotda o‘smirlarning taqdiri, ularning jamiyatdagi o‘rni, psixologik va axloqiy shakllanishi muhim mavzulardan biridir. Tohir Malikning “Alvido... bolalik” qissasi aynan shu yo‘nalishda yozilgan asar bo‘lib, unda yosh avlodning hayotidagi muhim burilishlar, noto‘g‘ri tarbiya natijasidagi fojealar va ijtimoiy loqaydlik oqibatlari tahlil qilinadi. Ushbu maqolada asarning g‘oyaviy mazmuni, qahramonlar obrazlari va muallif tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-psixologik muammolar chuqur yoritiladi.

Ushbu maqolada adabiy tahlil, kontekstual yondashuv va psixologik tahlil metodlari asosida “Alvido... bolalik” qissasidagi asosiy obrazlar va ularning hayotiy fojialari o‘rganildi. Asarda aks ettirilgan voqealar real hayotdagi ijtimoiy muammolar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, o‘quvchilarda tarbiyaviy ta’sir uyg‘otuvchi jihatlar asosida baho berildi.

Asosiy qism. “Tohir Malikning “Alvido... bolalik” qissasi” o‘zbek adabiyotidagi ijtimoiy-psixologik yo‘nalishdagi muhim asarlardan biri bo‘lib, unda o‘smirlarning ichki dunyosi, hayotiy tanlovlari, ijtimoiy tengsizlik va axloqiy qadriyatlar chuqur tasvirlanadi. Ushbu bobda asarning asosiy ijtimoiy-psixologik jihatlari alohida tahlil qilinadi.

✓ “Tohir Malikning “Alvido... bolalik” qissasi o‘zbek adabiyotida o‘smirlik davri muammolarini ko‘rsatishda tub burilish yasagan asarlardan biridir. Asarda jinoyatga qo‘l urgan bolalarning psixologik holati, bu yo‘lga qanday omillar sabab bo‘lgani keng yoritiladi. Yozuvchining pozitsiyasiga ko‘ra, “Hech bir bola jinoyatchi bo‘lib dunyoga

kelmaydi; uni jinoyatga yetaklovchi omillar – ijtimoiy muhit, loqaydlik, qashshoqlik, oilaviy inqiroz, beqaror ruhiy holat, maktab va jamoaning beparvo munosabatidir¹. Asarda Akmal, Asror, Qamariddin kabi o'smirlar hayotida ijtimoiy muhitning salbiy ta'siri markaziy o'rin egallaydi. Ular orasida birortasi tug'ma yovuz, jamiyatga qarshi kayfiyatdagi shaxs emas; ular turli ijtimoiy va oilaviy bosimlar, yetarli e'tibor va mehr-oqibatning yo'qligi tufayli jinoyat sari sudralib borishadi. Masalan, Qamariddin obrazida bolalarcha soddalik, g'amxo'rlikka chanqoqlik, lekin atrof-muhitning befarqligi tufayli yuzaga kelgan ruhiy bo'shliq aniq ko'zga tashlanadi. Uning onasi o'z farzandi uchun mas'uliyatni zimmasiga olish o'rniga, uni tan olmaslik, u bilan aloqani inkor etish orqali faqat o'z manfaatini ko'zlaydi. Bu esa bolani jamiyat nazarida begona, ortiqcha va hatto xavfli mavjudotga aylantiradi. Muallif bu jihatni achchiq haqiqatlar bilan ifodalaydi: “Agar bu bola biror narsa bo'lsa, o'zlaringga yomon. Yaxshisi, tanimaymiz, deb turlaring”. Shuningdek, muhitning salbiy ta'sirini kuchaytiradigan omillardan biri bu do'stona deb o'ylangan, aslida esa yomon niyatli, jinoyat sari boshlovchi “do'stlar” obrazlarida aks etadi. Asror va Salim kabi qahramonlar hayotidagi tanlovlar ularning o'z irodasi bilan emas, balki atrofdagilarning tazyiqi bilan amalga oshirilgani ko'rsatiladi. Ularning muhitda qadrsizlanishi, jamiyat nazaridan tushib qolganligi, ularning ruhiy qiyofasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat psixologik jihatdan o'smirlarning ichki inqiroz holatiga tushishiga sabab bo'ladi.

Tohir Malik ushbu jinoyatga yetaklovchi omillarni ko'rsatish orqali aslida ogohlik berishni, o'z vaqtida bolaga mehr, e'tibor, ishonch bilan yondashish zarurligini targ'ib qiladi. Chunki jinoyatga yo'liqayotgan o'smirlar – bu jamiyatning e'tiborsiz qoldirgan farzandlaridir. Bundan tashqari, asarda aks

¹ Tohir M. “Alvido... bolalik”. Qissa. Toshkent: “Yoshlar” nashriyot uyi. 2019. – 172-bet.

ettirilgan ijtimoiy muhit qashshoqlik, tengsizlik, oilaviy buzilishlar, ma'naviyatsizlik kabi tizimli muammolarning bolalar taqdiriga qanday ta'sir qilishi masalasini ham o'rta qo'yadi. Akmalning oilasida mehr yetishmasligi, maktab va jamiyatdagi befarq munosabat uning ruhiy iztirobini chuqurlashtirib boradi. Bu holat o'quvchi ongida “jinoyat – muhit mahsuli” degan asosiy g'oyani mustahkamlaydi.

Shunday qilib, asarda jinoyatga yetaklovchi omillar – oilaviy muhit, do'stlar bosimi, ijtimoiy befarqlik badiiy vositalar orqali yoritiladi. Bu ijtimoiy muhit – otalarning befarqligi, maktabning qattiqqo'l yondashuvi, jamiyatning murosasizlik bilan qarashi, do'stlarning noto'g'ri yo'l ko'rsatishi, ya'ni birgalikda vujudga kelgan tizimli loqaydlikdir. Muallif bu muammolarni bolalar timsolida ko'rsatib, ogohlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadni ko'zlaydi. Asarning bu jihati uni nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-pedagogik manbaa sifatida ham dolzarb qiladi.

✓ Oilaviy tarbiya va loqaydlik. Yozuvchi oilani jamiyatning birlamchi tarbiya maktabi sifatida baholaydi. Qamariddinning onasi timsolida muallif befarq va manfaatparast ota-onalarning ayrim vakillarini fosh qiladi. Bolaning jinoyatga aralashib qolishida ularning “menimcha yo‘q” deya chetlanishi eng xavfli omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, asarda ota-onaning mehr va mas‘uliyati yetishmaganida bola qanday yo‘ldan ketishi mumkinligi chuqur ochib beriladi. Bu obraz orqali yozuvchi jamiyatda mavjud bo‘lgan umumiy loqaydlik muammosini ko‘rsatishga harakat qiladi.

✓ Do‘stlik, birdamlik va axloqiy saboqlar. Asarda har bir qahramon o‘zining muayyan ma‘naviy xarakteri bilan ajralib turadi. Bahrom va Po‘lat obrazlari orqali do‘stlik, fidoyilik va sadoqat g‘oyalari ilgari suriladi. Ularning hayotdagi sinovlarga birga qarshi turishi, bir-birini himoya qilishi va og‘ir damlarda ortga chekinmasligi asarning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. Ayniqsa, “gard yuqtirmayman, mening gunohim” degan Qamariddinning so‘zlari orqali o‘smirlarning o‘zaro sadoqati va halollik tushunchalari chuqur ifodalanadi.

✓ Vijdon va orzularning buzilishi. Tohir Malikning yozuv uslubi o‘quvchini voqealar markaziga tortadi. Asarda bolalik orzulari, insoniy umidlar va yosh qalblarning poymol bo‘lishi dramatik tarzda ifodalangan. “Bolalik – hayotning unutilmas davri” degan fikr asar davomida bot-bot eslatib o‘tiladi. Tikanli simlar ortidagi koloniyada o‘tirgan o‘smir bola hayotining ma‘nosini tushunib yetgani, hayotda qilgan xatolari uchun o‘zini qoralashi, bolaning vijdon azobiga tushganini ko‘rsatadi.

✓ Jamiyat va ijtimoiy mas‘uliyat. Tohir Malik jamiyatni ham muammoga mas‘ul subyekt sifatida ko‘rsatadi. Asarda “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan xalq maqoliga tayangan holda, jamiyatning har bir a‘zosi bola tarbiyasiga mas‘ul ekanligi ta’kidlanadi. Adib loqaydlikni eng katta ijtimoiy illat deb hisoblaydi. Chunki jinoyatchilik – bu oqibat, uning ildizi esa e’tiborsizlikda. Asarda bu holat quyidagi jumla orqali yakuniy nuqtaga chiqadi: “Loqayd odam jinoyatni ko‘rib turib, sukut qiladi. Ammo aynan uning sukuti boshqa bir gunohning boshlanishidir.”

✓ Asarning badiiy uslubi va pedagogik yondashuvi. Asar o‘zbek detektiv janrining namunasi sifatida qiziqarli syujetga ega bo‘lishi bilan birga, chuqur pedagogik mazmun bilan boyitilgan. Muallifning hayotiy realizmga tayanishi, o‘smir qahramonlar ruhiyatini chuqur ochib berishi, asarni nafaqat adabiy, balki pedagogik-nazariy manbaa sifatida ham qadrlash imkonini beradi. Bu jihatdan qissa yosh avlod tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun ham foydali manbaa bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Tohir Malikning “Alvido bolalik” qissasi faqat badiiy asar bo‘lib qolmay, balki jamiyatdagi muhim ijtimoiy masalalarga e’tibor qaratadi. U yoshlar hayotiga e’tiborli

bo'lish, tarbiyada muhim qadriyatlarni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Asar bugungi kun o'quvchisini chuqur o'ylantiradi, ota-onalar, ustozlar va jamiyat oldiga dolzarb savollar qo'yadi. Taqdirga loqayd bo'lmaslik – bu asarning asosiy chaqirig'i sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Malik T. (2019). Alvado bolalik: Qissa. Toshkent: "Yoshlar" nashriyot uyi. – 172-184- betlar.
2. Saidov U. (2021). *Adabiy qahramonlar va ularning ruhiy olami*. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
3. Xidoyatov S. (2020). "O'zbekiston bolalar adabiyotida ijtimoiy-tarbiyaviy g'oyalar." // "Adabiyot va san'at" jurnali, №4, 78-83-betlar.
4. Mahmudova, M. (2022). *O'smirlik psixologiyasi va jinoyatchilikning psixologik omillari*. – Samarqand: "Ilm ziyo" nashriyoti.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tohir_Malik